

MA'LUMOTNOMA № 44 (17 iyul 2025-yil)

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich 6-2 Uzb 24-guruh talabasi Toxirova Zaxro Mohir qizining 2024/2025-o'quv yilida ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid boshqa yo'nalishlardagi faolligi to'g'risida.

Berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdaki, 2024/2025-o'quv yilida talaba Toxirova Zaxro Mohir qizining ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid boshqa yo'nalishlardagi faolligi o'rganildi va 3(uch) ball bilan baholandi.

Fakultet dekani:  Q.R.To'xsanov



"OITS 21-asr vabosi"

Joriy yilning 22-oktabr kuni Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova tomonidan viloyat OITSGa qarshi kurashish markazi mutaxassisi Ergashev Dilshod Yuldoshevich bilan hamkorlikda 6-4 UZB 24 guruh talabalari ishtirokida "OITS XXI asr vabosi" mavzusida profilaktik davra suhbatlari o'tkazildi. Suhbat davomida OIV infeksiyasining kelib chiqish tarixi, yuqish yo'llari, OITSning salbiy oqibatlari hamda profilaktik choratadbirlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. OITS kasalligining yuqish yo'llari, kasallik belgilari va OIV faqat inson tanasining hujayralarida ko'payishi mumkinligi, tashqi muhitda virus tezda nobud bo'lishi haqida tushunchalar berildi.

Davra suhbatlari so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Tyutor: R.D.Muqumova



Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan O'zbekiston fuqarosi bo'lgan turli millat va elat vakillarining Navro'zni nishonlashga oid urf-odatlarini, an'ana va

**qadriyatlarini keng namoyish etish maqsadida “Qadriyatlaring boqiy bo'lsin,
Navro'z!!”shiori ostida o'tkazilgan tadbir**

BAYONNOMASI

Buxoro shahri

18.03.2025

Qatnashdilar: Buxoro davlat universiteti barcha xodimlari va talabalari.

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston fuqarosi bo'lgan turli millat va elat vakillarining Navro'zni nishonlashga oid-urf odatlari va qadriyatlarini keng namoyish qilish .

2. Kelin salom marosimini o'tkazish.

ESHITILDI:

1-masala yuzasidan barcha fakultetlar o'z chiqishlari erta tongdan Buxoro davlat universiteti barcha xodimlari va talabalari hamda shahar ahli va mehmonlar ushbu boqqa chorlandi. Doshqozonlarda sumalak, palov va boshqa milliy taomlar tayyorlanib, elga ulashildi. Barcha fakultet talabalari, Viloyat tashkilotlari, mahallalar tomonidan ayyom bilan bog'liq urf-odat va an'analar, milliy taomlar ko'rgazmalari tashkil qilindi. Dorboz o'yinlari, milliy va xalq o'yinlari namoyish etildi. Viloyatdagi turli millat vakillarini o'z atrofida jamlagan milliy madaniyat markazlari ham bayram tadbirlarida o'z dasturlari bilan qatnashdi. Bahor bilan bog'liq marosimlar, ko'rgazmali chiqishlar uyushtirildi. – Navro'z bir necha ming yillik tarixga ega asl milliy bayramimiz, sharqona yangi yil hisoblanadi – dedi filologiya fakultet dekani Q.R.To'xsanov. – Ajdodlarimiz bu kunni tabiatning uyg'onishi va yangilanishi, dehqonchilik mavsumining boshlanishi sifatida nishonlab kelgan. Sayillar uyushtirilib, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, marosim va urf-odatlar namoyish etilgan. Keyingi ikki yilda pandemiya sababli bu qutlug' ayyomni keng nishonlay olmadik. Davlatimiz rahbarining qarori bilan bu yil Navro'z yurtimizda sayil sifatida, ko'p millatli xalqimizning hamjihatligida bayram qilinmoqda. Viloyatimiz qishlog'u mahallalarida ham Navro'z o'zgacha mazmun-mohiyat bilan keng nishonlanmoqda. Navro'zning yangilash, mehr-oqibat, qadr-qimmat ayyomi ekanligi bayram tadbirlarida o'z ifodasini topmoqda. Tadbirda barcha fakultetlar tomonidan har bir viloyatning milliy urf odatlari ananalari aks etgan chiqishlar namoyish etildi. Filologiya fakulteti talabalari tomonidan Navoiy viloyatining qo'shiqlari qo'shiqlar ijro qilindi

2-masala yuzasidan Filologiya fakulteti talabalari tomonidan tayyorlab kelingan “Kelin salom” marosimi ijro etildi. Bu bayram madaniyatning bir qismi bo'lib, madaniy birdamlikni kuchaytiradi. Bayram nishonlash chog'ida hunarmandlar ushbu madaniyatning keng yo'nalishlarini va mahalliy, milliy va hududiy madaniyatni

o'zida aks ettiruvchi va tarqatuvchi bo'g'in hisoblanadi. Ushbu tadbir ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

QAROR QILINDI:

1. Doimiy ravishda yurtimizda millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar to'g'risida talabalarga ma'lumot berib borilsin amalga oshirilsin.

2. Nishonlangan Navro'z ayyomi universitetning barcha saytlarida keng yoritilsin.

Tyutor: R.D.Muqumova



<https://t.me/MANAVIYATLIINSONLAR/63688>



Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova tomonidan 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan "Hayotimning gulshani –ona" manzusi asosida o'tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

04.03.2025.

QATNASHDILAR: BuxDu o'quv ishlar bo'yicha prorektor R.Jumayev, Filologiya fakulteti dekani Q.R. To'xsanov, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari T.A.Rajabov, tyutor R.Muqumova. filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari hamda ularning onalari.

KUN TARTIBI:

1. **“Hayotimning gulshani –ona” nomli tadbir tashkil etish**
2. Talabani onalariga bayram munosabati bilan tashakkurnoma berish.

ESHITILDI:


Insoniyat yaralibdiki hayot haqida, hayot beshigi – ona haqida eng aziz, eng jozibali so'z aytgisi keladi. Vaholanki, so'zning ham, hayotning ham, turmush zavqi, sururi ham onadan boshlanadi. Aytishlaricha, faylasuflardan biri qalbining tub-tubidan sitilib chiqadigan hissiyotlari, iltijolari, tavallolari izhorini “Alloh haqida So'z” deya atagan ekan. So'z nima? Odam so'zni qanday o'rganadi? Bir parchagina suyaksiz til qanday qilib so'zni ifodalaydi? So'zning o'zi aslida ona qalbining qat-qatidan, ming bir hujayrasidan sitilib chiqqan nido emasmi? Bu kabi savollar ko'p. Nazarimizda javob bitta: So'zning buyuk ijodkori – Ona. Shu bois, so'z – hayot avvali. Murg'akkina bola ilk bora ona bag'rida, uning qalb to'lg'onishlarida, mehr va umid izhorida so'z eshitadi. Demak, ona borliqning mo'jizasi, buyuk va betakror qudrati, bebaho ne'mati. Shunday ekan, bu rangin olam, bu serjilo dunyo ona tufayli go'zal, mazmundor, maftunkor.

Borliq mahobatli, cheksiz-chegarasiz majmua. Unda falsafa, tafakkur, rang, ohang, musiqa bor. Faqat uni anglash, his qilish lozim. Buning uchun esa uni butun borlig'i va salmog'i bilan idrok eta oladigan qalb kerak bo'ladi. Ana shu qalbni, bebaho gavharni, inson mohiyatini o'zida mujassam etgan olmosni ona hadya etadi. Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova tashabbusi bilan joriy yilning 4-mart kuni 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan “Hayotimning gulshani –ona” manzusi asosida tadbir tashkil qilindi. Tadbirda fakultetning o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari va ularning onajonlari ishtirok etdilar. Tadbirni BuxDu o'quv ishlar bo'yicha prorektor R.Jumayev ochib berib, barcha onajonlarni bayram munosabati bilan tabrikladilar. Talabalar tomonidan she'r va qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari onajonlariga taqdim etildi, fakultet dekani Q.R. To'xsanov barcha onajonlarni tabriklab tashakkurnoma taqdim etdilar. Bayram barchaga kata taaassurot qoldirdi. Ona simfoniyasida hayotning turli-tuman ohanglari, tovushlari, ranglari uyg'unlashib ketgan. Unda kamalak go'zalligi va maftunkorligi mujassam. Ranglar va ohanglarning o'zaro birlashishidan Ona va Hayot mohiyati, uning buyuk falsafasi yuzaga keladi. Tadbir yakunida dil izhorlar eshitildi.

QARORO QILINDI:

1. O'tkazilgan tadbir OAVga yoritilsin va bayonlashtirilsin.

Tyutor: R.D.Muqumova.



https://t.me/buxdu_uz/59431



Buxoro davlat universiteti O'zLiDeP partiya azolari bilan o'tkazilgan uchrashuv

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

28.09.2024.

QATNASHDILAR: Buxoro davlat universitetida O'zLiDeP rahbariyati hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarning ushbu oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari va talaba- yoshlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

KUN TARTIBI:

1. O'zLiDeP rahbariyati hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar bilan uchrashuv o'tkazish.

ESHITILDI:

Tadbirda so'zga chiqqanlar deputatlikka nomzodlar O'zLiDeP bu yilgi saylovlarga "Va'da emas natija, ertaga emas bugun" ezgu shiori ostida "5 maqsad – 500 vazifani" o'z ichiga olgan Saylovoldi dasturi bilan qizg'in tayyorgarlik olib borayotganini ta'kidladi. E'tiborlisi, yoshlarni hunar

va zamonaviy kasblarga, xorijiy tillarga o‘qitish, ma’naviyatni, ma’rifatni yuksaltirish, kitobxonlikni oshirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda “IT” sohasi va sportga keng jalb etish borasida puxta ishlangan rejalarini amalga oshirish, ishbilarmonlikni faol qo‘llab-quvvatlash, xususan, ishsiz yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish singari dolzarb masalalar O‘zLiDeP Saylovoldi dasturining asosini tashkil etadi. Yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash amaliyotining aynan korxonalar buyurtmasi asosida joriy etilishi ham Saylovoldi dasturda o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, mamlakatimizning har bir viloyatida kamida 100 gektar maydonda “Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi”ni tashkil etish ham partiya zimmasidagi muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari yosh avlodni tadbirkorlikka jalb qilish uchun joylardagi mikromoliyalash xizmatlarini kengaytirish va tegishli asbob-uskunalardan keng foydalanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratishga ham partiya o‘z diqqat e’tiborini qaratgan. Nomzodlar shular haqida so‘z yuritar ekanlar, buxorolik yoshlar ham bu imkoniyatlardan kelgusida unumli foydalanishlari mumkinligini, O‘zLiDePning Saylovoldi dasturida aks ettirilgan ustuvor vazifalar ijrosi mustaqil hayot ostonasida turgan yigit-qizlar uchun ham haqiqiy dasturilamal bo‘lib xizmat qilishini ta’kidladi. Partiya saylovoldi dasturida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larni yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030 yilgacha 10 barobar oshirishga erishish haqidagi loyihalarning ishlab chiqilishi ayni muddao bo‘ldi, – deydi BuxDU prorektori Rustam Jumayev. – Chindan ham, ilmga qaratilgan e’tibor yurt taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu jihatdan partiyaning O‘zbekiston kelajagini o‘ylab qabul qilgan bu dasturi minglab ilm va ma’rifat ahli mehnatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotda so‘z olgan partiya Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi Aktam Hayitov uchrashuv ishtirokchilarini saylovlar kunida O‘zLiDeP va uning nomzodlari uchun yakdillik bilan ovoz berishga chaqirdi.

QAROR QILINDI.

1. Yosh avlodni tadbirkorlikka jalb qilish uchun joylardagi mikromoliyalash xizmatlarini kengaytirish va tegishli asbob-uskunalardan keng foydalanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish

Bayonlashtiruvchi: R.D.Muqumova



<https://t.me/uzlidep>



